

Bereketi ushiw, ábiger tartıp qalıw frazemalari semantik tarkibida “moddiy jihatdan yetishmovchilikka duchor bo’lish, kambag’allashish” semalari mavjud. Mazkur semalar frazemalarni bir ma’no atrofida birlashtiradi: – *Porxan ag’a ketti de elden bereket ushtı, – dedi Qayıpbek* (M.Nizanov). *Biraq, awılda Porxan maqsımınñ xojalıǵı dım ábiger tartıp qaldı.* (M.Nizanov).

Úskini quyılıw, qabaǵı ashılmaw, kókireǵı óshıp qalıw frazemalari o’zaro sinonim bo’lib, ularning semantikasida “o’ziga ishonchi qolmaslik, kayfiyati tushish” semalari mavjud. Misollar: *Jıgıtın úskini quyıldı da qaldı, ya ári demedi, ya beri demedi* (Sh.Seyitov). *Ókinip bolıp, aytpay ketken joldaslarına kóp waqqa deyin qabaǵı ashılmay júredi* (M.Nizanov). Shuningdek, ushbu mazmunda **ishken ası boylarına taramaw** frazeması ham ishlatiladi: *Biysharalardǵı ishken ası boylarına taramay, salpawsıp úylerine qaytıadı* (M.Nizanov). **Sam-saz bolıw** frazeması ham yuqoridagılarga sinonim bo’lib keladi: *Lekin, geydegeyde óz-ózinew kewli qulazıp, dástúrhan basında gáp-sózge aralaspay sam-saz bolıp otırıp qalatuǵın ádetti shıǵardı* (M.Nizanov).

Qoraqalpoq tilida: **“Sút iship awız piskew adam qatıqtı da úrlep ishedi** (o’zbekchasi – **sut ichib og’zi kuygan odam qatıqtı ham puflab ichadi**), – degan maqol bor. Uning bir qismini qo’llash orqali butun ma’nosini anglatish tilshunoslikda allyuziya deyiladi. Quyidagi misolga e’tibor bering:

– *Endi awızımız piskew shıǵar aw!*

– *Solay shıǵar. Biraq aytpay kiyatırman* (Sh.Seyitov). Misoldagi frazeologik birlikning umumtilidagi to’liq variantini aniq anglash uchun o’quvchining shu maqolning tildagi an’anaviy shaklini yaxshi bilishi kerak bo’ladi. Shunday usullarni qo’llash orqali ham nutqning ta’sirchanligini orttirishga erishiladi.

Tildagi ba’zi maqollarni foydalanishda ularning orasiga boshqa komponentlar ham qo’shilishi mumkin. Qoraqalpoq

tilida **“Suwǵa ketken adam tal qarmaydı”** (O’zbek tilida – **cho’kayotgan odam xasga yopishadi**) degan maqol bor. Sh.Seyitov mazkur maqolning orasiga boshqa komponentlarni kiritish orqali uni transformatsiya qilgan: *Sıdıqqa eremiseñ, ol da bir suwǵa ketken adam, bilseñ, usı aqırǵı tal qarmawları edı, qolına sen iline qoyıpsañdaǵı!* (Sh.Seyitov).

Qoraqalpoq tilida **tili ashshı, tili záhár, tili uwday** frazemalari mavjud bo’lib, “gap-so’zlari insonga salbiy ta’sir qiladigan, ko’ngliga og’ir botadigan” ma’nolarga ega. Misollar:

Tünge qaray kún ara keter “urıs”,

Telegramǵa túsken til uwday eken (O.Sátbaev).

Kelinshek bolıwdan ataqlı úsh tuwısqanıñ ayırılısqanı eske alsa qınjıladı, tili ashshı birewdıñ “úsh ayǵırdı shayqastırǵan qasañ baytal” dewinen qorqıp, qoñsılas kelinsheklerge tiklenip qaray almas edi. (T.Qayıpbergenov). *Kúnnen künge ne bolıp baratırsañ ózi, tiliñ záhár, awızına kelgendi sandalay beretuǵın bolǵansañ, anamdı sorǵanıñ ayıp pa, meniñ ushın ol barlıq nárseden ziyat, turmıstıñ mashaqatlarına kónip, pútkil ómirin maǵan arnaǵan, aq sút bergen anam ol meniñ, aqırı!* (Alp Sultan).

Qoraqalpoq yozuvchisi M.Nizanov mazkur frazemaga sinonim yangi frazema yaratadi: *Sendey dostum joq meniñ. Seniñ tiliñe julannıñ záhári jaǵılǵan* (M.Nizanov). Frazeologik transformatsiya usulidan foydalanish orqali uning tarkibiga ayrim qismlarni kiritgan. Bu o’zgarish frazemaning ta’sirchanligini yanada orttirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, adiblar sinonimi bo’lgan frazemalarni ijod qiladilar va tasvirlanayotgan voqea-hodisaga muvofiq frazeologizmning uslubiy bo’yoqdorligini oshirishda va qahramonlarning portretlarini yaratishda, ularning o’ziga xos xususiyatlarini ko’rsatishda mohirona foydalana olgan.

Adabiyotlar

1. Каримова З.С. Поэтика фразеологизмов в прозе Аяза Гилязова. АКД. – Уфа: 2008. – С. 15.
2. Yusupova B.T. Fonostilistika. Sh.Seyitovtın “Xalqabad” romanı tili frazeologiyasınıñ fonostilistikalıq analizi. – Tashkent: “Yosh avlod matbaa”, 2021.
3. Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: 1992. 379-b.
4. Eshbaev J. Qaraqalpaq tiliniñ qisqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1985. 158-b.
5. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniñ frazeologizmler sózligi. – Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 2018. 160-b.

REZYUME. Maqolada qoraqalpoq yozuvchilarining tildagi frazemalardan asarning emotsional-ekspressivligini oshirishda, qahramonning ayrim xususiyatlarini bo’rttirib tasvirlashda ulardan ustalik bilan foydalanadilar. Shu bilan birga ularning tarkibiga o’zgartirishlar kiritish, ularni qayta shakllantirish orqali ham ta’sirchanligini orttirishga adiblarning ustalik bilan foydalanishlari misollar asosida ko’rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье каракалпакские писатели мастерски используют фразы в языке для повышения эмоциональной выразительности произведения, отображая определенные черты характера героя. В то же время на примерах показано умелое использование мудрецов для достижения выразительности даже путем внесения изменений в их содержании, их переформулировки.

SUMMARY. In this article, Karakalpak writers masterfully use phrases in the language to enhance the emotional expressiveness of the work, reflecting certain character traits of the hero. At the same time, the examples show the skillful use of sages to achieve expressiveness even by making changes in their content, their reformulation.

VATAN KONSEPTINING GASTRONOMIK NOMLAR BILAN IFODALANISHI

M.R.Xolmo’minova – tayanch doktorant

O’zbekiston milliy universiteti

Tayanch so’zlar: konsept, vatan konsepti, milliy-madaniy tushuncha, lingvokulturemalar, gastronomik nomlar.

Ключевые слова: концепт, концепт родины, национально-культурный концепт, лингвокультуры, гастрономические названия.

Key words: concept, homeland concept, national-cultural concept, linguistic cultures, gastronomic names.

Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma’no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to’g’ri va ko’chma ma’nosidan farqli o’laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir. V.V.Vorobyev “lingvokulturologiya – sintezlovchi toifadagi kompleks ilm sohasi bo’lib, u madaniyat va til o’rtasidagi o’zaro aloqalar va ta’sirlashuvlarni o’rganadi [9:76]. Bu jarayonni yagona lisoniy va nolisoniy (madaniy) mazmunga ega birliklarning yaxlit tarkibi sifatida mazkur jarayonni zamonaviy nufuzli madaniy ustuvorliklarga (umuminsoniy me’yorlar va qadriyatlar) qaratilgan tizimli metodlar yordamida aks ettiradi”, – deb ko’rsatadi. Ushbu

tushunchalarning o’zaro farqli jihatlarini professor O.Yusupov quydagicha izohlaydi. “Lingvokulturema - o’z semantikasida (ma’nosida) madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo’lagini aks ettiruvchi so’zlar, frazeologik birliklar, so’z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida ko’rsatilgan birliklar, mazmun planini esa o’sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o’zining mazmun va ifoda

planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. Uningcha, "lingvokulturema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, "zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko'rinishida, ya'ni so'zlar vositasida ifoda etadi".

Ayrim gastronomik nomlar mavjudki, ularda ham realiyalik xususiyati mavjud. Ularning ba'zilar faqatgina o'zbek xalqiga oid milliy taomlar bo'lsa, ba'zilar mazmun jihatdan shunga yaqin tushunchalardir.

Gastronomiya – madaniyat va oziq-ovqat mahsulotlari va ulardan tayyorlanadigan taomlarning umumiy nomini anglatadi. Har bir millat kishisining o'z ta'bi mavjud bo'lib, ta'b va ehtiyoj u yoki bu shaklda lisonda aks etadi. Lisoniy mohiyat esa gastronomik atamalarda voqelanadi. Aynan shu asosga ko'ra, gastronomiya milliylikni ifodalab kela oladi degan nazariya mavjud.

Materiallar va uslublar

Ushbu fikrni ochiqroq bayon qilish uchun o'zbek she'riy matnlarida uchraydigan ayrim gastronomik birliklarni *tahlil qilamiz* hamda vatan konsepti bilan *semantik qiyoslaymiz*.

Sen tebratgan beshigini Sohibqiron,

Sening bolang yulduzlarga qo'ygan narvon.

Bir *mayizni* qirqa bo'lgan bir tan-u jon,

Kunlaringga qaytay desang – xalq bo'l, elim [3:6].

O'zbekiston mayiz eng ko'p ishlab chiqaruvchi davlatlar qatorida top 10 talikka kiradi. Ularning asosiy qismi turkiy davlatlar. Xususan, 1-o'rinda Turkiya turadi. Shunga qaramasdan, mayiz o'zbek xalqi madaniyati bilan azaldan o'zaro bog'liq. "Bir mayizni qirq bo'lib yemoq" kabi paremiologik birliklar ham shakllangan bo'lib, ular ham ko'p yillik tarixga ega. Ushbu maqol orqali o'zbek xalqi birdamligi va hamjihatligi ochib berilgan bo'lib, millatimizga to'liq xos va bog'liqligini ko'rish mumkin. Ajralmas birlik sifatida mayiz o'rniga boshqa bir so'zni qo'llash mumkin bo'lmagani holda, ma'lum bir ramz sifatida qo'llanilgan. Boshqa tillarda mayiz tushunchasi aynan shu mazmunni bera olmasligi, uning milliy asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Milliy-madaniy xususiyatga ega bo'lgan boshqa tushunchalar kabi, mayiz ham bu o'rinda vatan konseptini yoritib berishga xizmat qilgan. Matndan tashqari milliylikka ega bo'lmasa-da, matn ichida, ayniqsa, aynan paremiologik shaklda to'g'ridan-to'g'ri shu vazifada kela oladi.

Rizq-u ro'zin sohib aylanar falak,

Sen esa dalangdan topolmay halak –

Bolashta bergali bitta *handalak*,

Nega yig'lamaysan, ahli Andijon?! [3:36]

Tarvuz, qovun kabi turli poliz mahsulotlari oziq-ovqat mahsuloti sifatida turli madaniyatlar uchun birdek mazmunga ega bo'lib, madaniy xususiyatga ega gastronomik nom sifatida keltirilmaydi. Biroq qovunning yumaloq, maydaroq, xushbo'y, eti yumshoq, ertaroq yetiladigan bir turi hisoblanuvchi *handalak* termini ba'zi o'rinlardan nafaqat madaniy, balki tarixiy ahamiyat ham kasb etadi. She'riy parcha Andijon bilan bog'liq ekanligi pragmatik jihatdan bir paytlar yurtidan olis ketgan Bobur bilan non hamda handalakka bog'liq voqeaga ishora qilayotgani shubhasiz. Bu o'rinda handalak milliylikka emas, balki aynan Zahiriddin Muhammad Bobur tarixi bilan bog'lanadi. Bu esa, albatta, Andijon va bevosita O'zbekiston yoki o'zbek xalqi bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Shuning uchun handalak lingvokulterma sifatida ham, gastronomik birlik sifatida ham, pragmatik hamda konnotativ mazmuni bilan ham vatan konseptini ifodalab kelmoqda.

Qiz degani ko'ksi to'la o'y bo'ladi,

Yigit bir kun yetilib bo'y bo'ladi.

Bir tandir *non*, o'rtada bir kosa suv,
O'nta o'zbek yig'lsa to'y bo'ladi [3:174].

Natija va muhokama

Non boshqa nomlardan ko'ra ko'proq milliy-madaniy xususiyatga ega. Xitoy, koreys, yapon kabi ba'zi Osiyo xalqlari uchun non shirinlik sifatida ko'rilsa, ba'zi millatlarda deyarli iste'mol qilinmaydi. O'zbek xalqi uchun esa non dasturxonning ajralmas bir qismi sifatida gavdalanadi. Boshqa oziq-ovqat turlari yoki taomlardan farqli non kundalik iste'mol qilinadigan mahsulot hisoblanadi. Shu va boshqa bir qator sabablar tufayli, urush davrida "Toshkent – non shahri" iborasi shakllangan va bugungi kunda ham to'liq ma'nosini saqlab qolgan.

Non so'zi tojikcha „نان“ so'zidan olingan bo'lib, xamirdan yasab, tandirda yoki pechda pishiriladigan yemak ma'nosini anglatadi. Non turkiy xalqlarda "ekmak" so'zining asl kelib chiqishi bu nonning, aniqrog'i bug'doyning birinchi ekilgan narsa ekanidadir. Odam (a.s.) tomonidan birinchi ekilgan, dehqonchilik qilingan narsa bu bug'doy, ya'ni non bo'lgan. Shu sabab turkiy tildagi ekmak so'zining asl varianti ham shudir [7:199]. Ko'rinish turganidek, non etimologik jihatdan ham turkiy xalqlar bilan bog'lanadi. O'zbekiston hududida nonning juda ko'p xillari mavjud bo'lib, ular o'zi tayyorlanadigan uslub hamda joyga nisbatan nomlanadi. Masalan, Samarqandning o'zidagina faqat non mahsulotlarining «noni osiyoyi», «noni po'lati», «noni zargoroni», «noni tafton» «noni obaki», «noni kuloboki», «noni zamonikaf», «noni taroki», «noni xazzini» va boshqa turlari uchraydi. Non insonning kundalik iste'molida turli taomlar bilan yoki o'zicha tanovul qilinadi. Nonlarning pishirish (yopish) usuliga ko'ra: samarqand non, jizzali non, kunjutli non, yog'lik kulcha, patir non, qashqari non, ko'k patir, shirmoy non, shirmoy patir kabi turlari mavjud [5:297-298]. Bundan tashqari, non bilan bog'liq ko'plab frazeologik birlikmalar, maqola hamda iboralar mavjud. Ularning barchasi milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, dunyoqarashimiz hamda hayot tarzimizga oid bo'lib, non lingvokulturologik jihatdan boshqa so'zlarga qaraganda o'zbek madaniyatiga ancha ko'proq aloqador ekanligini ko'rsatadi. Misol uchun:

«Non gadoyi» frazemasi – variant non gadoyi bo'lib qolmoq; «nonga zor», «kambag'al-qashshoq» [4:59]. Ushbu frazema nonning xalq hayotidagi ta'siri mutlaqo qo'shimcha izohlarsiz ochib beradi. Ruslar uchun kartoshka, xitoylar uchun guruch qanchalik muhim hamda kundalik mahsulot bo'lsa, o'zbek xalqi uchun non xuddi shunday birlamchi hisoblanadi. Ushbu ibora bir tomondan, non bahosi past, moliyaviy jihatdan past taqadagi insonlarning ham qurbi yetadigan oziq-ovqat turidek tasvirlansa ham, asosiy g'oya nonning suv kabi hayotning birlamchi manbai ekanini anglatish, yashab qolish imkonini ekanligini ko'rsatishdir.

O'zbek xalqida non bilan bog'liq qadimiy urf-odatlar ham mavjud. Ulardan biri – non sindirish (yoki ushatish). U nikoh to'yi marosimlarining bir qismi, qiz tomon ya'ni uning ota-onalari sovchi yuborgan tomonga o'z roziligini bergach, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to'y bilan bog'liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi [4:57]. Bu va bu kabi odatlar bir qancha bo'lib, ularning paydo bo'lishi bir necha asr oldinga borib taqaladi. Bu esa nonning bir necha asrlardan buyon o'zbek millatining ajralmas qismi ekanligini isbotlaydi. Non realiya hisoblanmasa ham milliylikimiz ramzi hamda lingvokulturologik birlik sifatida vatan konseptini ifodalovchi birlik deyish mumkin.

Bizning bo'ston qayda bor,

Shohimardon qayda bor,

So'lim Surxon qayda bor,

Samarqand non qayda bor-a

O'zbekiston qayda bor? [3:213].

Bu she'riy parchada esa o'zbek nonlari ichidan nafaqat hudud ichida, balki tashrif buyuruvchi chet ellik mehmonlar orasida ham ma'lum va mashhur bo'lgan turi keltirilgan. Samarqand noni tayyorlanish usuli, tarixi, ta'm va ko'rinishi bilan boshqalaridan katta farq qiladi. Samarqand noni haqida juda ko'plab afsonalar ham mavjud bo'lib, ularning ba'zilari haqiqiy voqealarga asoslangan. O'zbekiston hududida non qanchalik qadrlı, mashhur hamda an'analarni o'zi bilan me'ros qilib kelayotgan bir gastronomik nom bo'lsa, Samarqand non ular ichida mashhurlikda ham, an'anaviylikda ham eng old o'rinda tura-di. Va aynan shuning uchun vatan konseptining semantik maydoni nonsiz tashkil etilmaganidek, Samarqand non atamasiz ham uni tasavvur etish qiyin.

Xulosa. Non, samarqand non, parvarda, pashmak kabi birliklar o'z tarixi va iste'mol doirasiga ko'ra o'zbek xalqining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ular matndan tashqarida ham milliylikiga egadir. She'riy matnlar ichida esa, bu mazmun yanada yorqinroq ifoda etilib, ma'no yanada kuchayadi;

Non atamasi bilan bir qatorda qovun hamda handalak kabi gastronomik tushunchalar pragmatik mazmuniga ko'ra, matnda qo'llanilgan yondash so'zlar bilan birgalikda o'zbek xalqining o'tmishi bilan aloqador bo'ladi, va she'riy matnlar tarkibida vatan konsepti bilan aloqasini ko'rsatib turadi;

Ko'k choy va choyxona gastronomik birliklari esa, o'zining uzoq o'tmishi bilan o'zbek millatiga chambarchas bog'liq hisoblanadi. Milliylikimizning ifodasi ekanligi nafaqat badiiy matn, xususan, she'riy matnlarda keltirilgan, balki o'z holicha ham faqatgina o'zbek xalqi tomonidan emas, balki deyarli butun dunyo tomonidan e'tirof etiladi.

Qisqa qilib aytganda, gastronomik birliklar lingvokul-turemalar sifatida vatan konseptining semantik maydoni o'ziga xos o'ringa ega. Mazmun jihatdan konseptni ularsiz shakllantirish qiyin. O'zbek she'riy matnlarida esa bu ma'no qirralari sodda hamda go'zal tarzda yoritib beriladi. Berilgan maqolada esa, asosan, non atamasi bilan bog'liq bo'lgan misollar ko'rib o'tildi.

Adabiyotlar

1. Croft W., & Alan, D. (2007) Cognitive Linguistics. Cambridge: CUP.
 2. Karimov U. Konsept tushunchasi va uning badiiy adabiyotdagi mohiyati. 2017. // O'zMU xabarları.
 3. Muhammad Yusuf Saylanma. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik jamiyati. 2007.
 4. O'zbek tilining izohli lug'ati. III jild “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2020.
 5. Qisqacha uy-ro'zg'or ensiklopediyasi (1982). O'zbek sovet ensiklopediyasi.
 6. Salakhova R.I. Actualization of the formation of a value attitude towards the Motherland among young people. Current problems of science and education. 2013.
 7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili etimologik lug'ati. “Universitet”. 2009.
 8. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics, Volume I Concept Structuring Systems. The MIT Press. 2000.
 9. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказочном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону. 2010.
- REZYUME.** Maqolada lingvomadaniy konseptlarning ayrimlarini tahlil hamda tasnif qilgan holda, Vatan konsepti bilan qiyoslab, tushunchalar orasidagi bog'liqlik ochib berilgan. Shuningdek, ayrim o'rinlarda gastronomik nomlar Vatan konsepti bilan chambarchas bog'liqligi, bu esa lingvokulturemalarning atama bilan aloqador ekanini isbotlangan.
- РЕЗЮМЕ.** В статье анализируются и классифицируются некоторые лингвокультурологические концепты, сравниваются их с концептом Родина, выявляется взаимосвязь между концептами. Также доказано, что гастрономические названия тесно связаны с понятием Родина, а значит, и лингвокультуры родственны этому термину.
- SUMMARY.** The article analyzes and classifies some of the linguistic and cultural concepts, compares them with the concept Homeland, and reveals the relationship between the concepts. Also, in some places, it has been proven that gastronomic names are closely related to the concept Homeland, which means that linguocultures are related to the term.

МАДАНИЯТЛАРАРО МУЛОҚОТДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ ЎРНИ ҲАҚИДА

А.А.Худайбергенов – филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

Таянч сўзлар: фразеологик бирликлар, фразеомикромайдон, фразеомакромайдон, фразеогрух, маданиятлараро мулоқот, структура, семантика, антропоцентризм, концепт.

Ключевые слова: фразеологизмы, фразеомикрополе, фразеомакрополе, фразеогруппа, межкультурная коммуникация, структура, семантика, антропоцентризм, концепт.

Key words: phraseological units, phraseomicrofield, phraseomacrofield, phraseogroup, intercultural communication, structure, semantics, anthropocentrism, concept.

Тил билан мулоқотда энг муҳим масалалар – бу объектив олам, маданият, тил, уларнинг ўзаро муноса-бати ва ўзаро таъсири. Аммо бунда олам манзараси моҳиятини оптимал тасаввур этиш учун кенг терминологик ихтиролар талаб қилинади. Уни юзага чиқаришга тўсқинлик этувчи нутқ ҳосил қилиш ва мулоқотнинг яширин қийинчиликлари (маданиятнинг мумкин бўлган амалий конфликтлари ҳақида огоҳлантириш каби) ту-файли мумкин бўлмайди. Чунки тил- маданиятни сақлаш воситаси, шунинг учун у тилшунослик нуктаи назардан сўзга, тушунчага, воқеликка, тушунчаларни лексик деталлаштиришга барча ҳар хил ифодаларнинг социомаданий аспектига (масалан, концепт доирасида инсон тушунчасининг барча жиҳатларини тилда кенг камраб олувчи атама сифатида) эквиваленти бўлиши ниҳоятда муҳимдир.

Ҳар хил халқларнинг ҳар хил маданиятлари фарқла-ри энг қадимги даврлардаёқ сезиларли бўлган. Бундай ҳолда қўйидагича саволлар қизиқиш ўйғотади: ушбу фарқлар нималарда кўринади, улар қаердан келиб чиқади, бу фарқлар абадий қайтиб келмаслиги, ёки, аксинча, мулоқот натижасида ҳар хил миллий мадания-ятлар қаерда бир-бирига мос келади [1:89].

Маданий ва маданиятлараро мулоқот имкониятлари тилда миллий маданий дунёни акс эттирувчи маданият-лар характери ёки, бошқача айтганда, миллий концеп-тосфера билан боғлиқдир [7:18-19].

Унинг ядроси (маркази) ни барча халқларга хос бўлган белгилар ташкил этади ва улар концепт ва константларга нисбатан чегараланган йиғиндисидан шаклланади [2:214-215].

Ер, ватан, дунё, дин, меҳнат, шунингдек, инсоннинг ўзи, эркак, аёл, оила, оналик, оталик, туғилиш, ҳаёт, ўлим ва б. Буларнинг ҳар қайсиси сўз ёки фразеологик бирлик (ФБ) билан ифодаланиб, концептнинг фақат вербал кўринишидир [4:10].

«Инсон» категорияси «реаллик»- «тил» зиддиятида очилади. Бунда шу омилни ҳисобга олиш ниҳоятда зарурки, унга кўра реал дунёдан йўл ҳар қандай тушун-чага ва кейинчалик унинг сўз билан ифодаланишига қараб боради. У эса турли халқларда ҳар хил. Ягона олам тил репрезентацияларида турли-тумандир, шу сабабли ҳам уларнинг акс этиши бир-бирига ўхшамайди [3:119-120].

Инсон концептининг функционал ва лисоний ўзига хослиги унинг семантик табиатининг намоён бўлишини